ABDURAUF FITRATNING “SHARQ SIYOSATI” RISOLASIDA AXLOQIY TANAZZUL VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT G‘OYALARI

Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Sharq falsafasi va germenevtikasi kafedrasi,
2-kurs doktoranti
abdufattoyevashahrizoda@gmail.com

Annotatsiya.
Mazkur maqolada jadidchilik namoyondalaridan biri bo‘lgan ma’rifatparvar Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” risolasidagi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari, jumladan, axloqiy tanazzul va ijtimoiy mas’uliyat masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. *Fitrat, “Sharq siyosati”, ma’naviyat, ma’naviy inqiroz, milliy o‘zlik, milliy birlik, axloqiy tanazzul, ijtimoiy mas’uliyat, manfaatparastlik, Aristotel.*

Kirish

Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” risolasi jadid mutafakkirining ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida sodir bo‘lgan keskin siyosiy o‘zgarishlar, milliy uyg‘onish harakatlari va mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyalari ta’sirida vujudga kelgan.

Risolaning yozilish davri 1919-yilga to‘g‘ri keladi. Bu davr Turkiston xalqlari hayotida o‘ta murakkab siyosiy vaziyat hukm surgan davr bo‘lib, bir tomondan, Rossiya imperiyasining parchalanishi va inqilobiy jarayonlar natijasida yangi siyosiy tuzum shakllanayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy ozodlik, ma’rifat va taraqqiyot masalalari jadid ziyolilarining diqqat markaziga aylangan edi. Fitrat ana shunday tarixiy sharoitda Sharq xalqlarining o‘tmishi, buguni va istiqboli haqida mushohada yuritib, “Sharq siyosati” risolasini yaratdi.

Fitratning ushbu risolasi uning siyosiy-falsafiy qarashlari evolyutsiyasida alohida bosqichni tashkil etadi. Agar mutafakkirning dastlabki asarlarida ma’rifiy islohot va axloqiy tarbiya masalalari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, “Sharq siyosati”da milliy ozodlik, mustamlakachilikka qarshi kurash, ijtimoiy birdamlik va tarixiy taraqqiyot muammolari markaziy o‘rinni egallaydi. Shu bois, mazkur asarni Fitratning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini aks ettiruvchi dasturiy asar sifatida baholash mumkin.

Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” risolasida Sharq xalqlarining tanazzuli masalasi faqat siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan izohlanmaydi. Mutafakkir jamiyatdagi axloqiy inqirozni ham ijtimoiy tanazzulning asosiy sabablaridan biri sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, risolada ilgari surilgan axloqiy qarashlar Fitratning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Fitrat Sharqning tanazzulini tahlil qilar ekan, shunday deydi: *“Biz, sharqlilar, dahi tinchlik va rohat so‘nginda buzulib qoldiq, yo‘ldan ozdik, ezgu tilaklarimizni unuta*

boshladik. Bilim va hunardan yuz qaytardik, birlik va axloqdan ayrildik, oqchag‘a berildik, oqchag‘a sotildik”[50].

Mazkur fikrlarda mutafakkir Sharq tanazzulining ichki sabablarini ochib beradi. Ayniqsa, “birlik va axloqdan ayrildik” hamda “oqchag‘a sotildik” degan iboralar chuqur falsafiy mazmunga ega. Fitratning nazarida, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi jamiyatni ichdan zaiflashtiradi va uni tashqi ta’sirlarga nisbatan ojiz holatga keltiradi.

“Oqchag‘a sotildik” iborasi moddiy manfaatning ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yilishini anglatadi. Bu yerda muallif nafaqat alohida shaxslarni, balki butun jamiyatni tanqid qiladi. Uning fikricha, manfaatparastlikning kuchayishi ijtimoiy birdamlikning susayishiga, vatanparvarlik tuyg‘usining zaiflashishiga va milliy manfaatlarning ikkinchi o‘ringa tushib qolishiga olib keladi.

Fitrat jamiyatning ma’naviy inqirozini rahbarlar faoliyati bilan ham bog‘laydi. U shunday yozadi*: “Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mullalar, bilimsiz eshonlarning qo‘lig‘a o‘tdi”*[51].

Ushbu jumlalar Fitratning ijtimoiy mas’uliyat haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Muallifga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan uning yetakchilariga bog‘liq. Agar rahbarlar ma’rifatdan yiroq, mas’uliyatsiz va shaxsiy manfaatni ustuvor qo‘yuvchi kishilar bo‘lsa, jamiyat muqarrar ravishda tanazzulga yuz tutadi.

Bu fikr Aristotelning “Davlat fuqarolarining axloqiy fazilatlari asosida barqaror bo‘ladi” degan qarashlari bilan hamohangdir. Fitrat ham jamiyat taraqqiyotini axloqiy yetuklik bilan bog‘laydi. Biroq u masalaga Sharq uyg‘onishi nuqtayi nazaridan yondashib, axloqiy islohotni milliy ozodlikning zaruriy sharti sifatida baholaydi.

Mutafakkir mustamlakachilik siyosatining axloqiy oqibatlariga ham alohida e’tibor qaratadi: *“Ovrupa jahongirlari Sharqqa tutkan siyosat yo‘llari shunlardir: Sharqning axloqini buzmoq, ko‘nglini diniy va milliy muqaddasatindan sovutmoq...”*[52].

Mazkur fikr Fitratning axloqni milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholaganini ko‘rsatadi. Uning nazarida, xalqning axloqiy asoslarini yemirish mustamlakachilikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biridir. Chunki ma’naviy jihatdan zaiflashgan jamiyat o‘z mustaqilligini himoya qila olmaydi.

Fitratning axloqiy qarashlarida ziyolilar masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Jadid mutafakkiri ziyolilarni jamiyatning ma’naviy yetakchilari deb biladi. Ularning asosiy vazifasi xalqni jaholatdan qutqarish, ma’rifat tarqatish va milliy manfaatlarni himoya qilishdan iboratdir.

Shu ma’noda, Fitrat ijtimoiy mas’uliyatni quyidagi darajalarda talqin qiladi:

1. Shaxsiy mas’uliyat – insonning o‘z axloqiy kamoloti ustida ishlashi;
2. Oilaviy mas’uliyat – kelajak avlodni ezgu qadriyatlar asosida tarbiyalash;
3. Ijtimoiy mas’uliyat – jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish;
4. Milliy mas’uliyat – vatan ravnaqi va xalq istiqboli uchun fidoyilik ko‘rsatish.

Fitratning nazarida, axloqiy tanazzul va ijtimoiy loqaydlik o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat a’zolari o‘z taqdiriga befarq bo‘lib qolgan sharoitda taraqqiyotga

[50] Abdurauf Fitrat. Sharq siyosati. – Buxoro: Navqiron Buxoro, 1991. – B. 18.
[51] O‘sha asar. – B. 21.
[52] Abdurauf Fitrat. Sharq siyosati. – Buxoro: Navqiron Buxoro, 1991. – B. 25.

erishish mumkin emas. Shu sababli mutafakkir har bir insonni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi bo‘lishga undaydi.

Risolada ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirgan holda, Fitratning axloqiy-falsafiy qarashlarini quyidagi tamoyillar orqali ifodalash mumkin:
– axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi;
– ma’rifat va axloqning o‘zaro bog‘liqligi;
– rahbarlarning jamiyat oldidagi mas’uliyati;
– ziyolilarning ma’rifiy missiyasi;
– milliy manfaatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligi;
– ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatining zarurligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Sharq siyosati” risolasida axloqiy tanazzul masalasi ijtimoiy inqirozning muhim sababi sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning fikricha, Sharq xalqlarining qayta uyg‘onishi faqat siyosiy mustaqillik yoki iqtisodiy islohotlar bilangina emas, balki chuqur axloqiy yangilanish orqali amalga oshishi mumkin. Shu bois, Fitratning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasida axloq, ma’rifat va ijtimoiy mas’uliyat o‘zaro uzviy bog‘liq kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ilmiy risolalar, V jild. – T.: Ma’naviyat, 2010. – 302 b.
2. Abdurauf Fitrat. Sharq siyosati. – Buxoro: Navqiron Buxoro, 1991. – 76 b.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 154 b.
4. Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi. – T.: Fan, 1996. – 175 b.
5. Halim Taşkaya. Abdurauf Fıtrat ve yaş buharaliler cemiyeti. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Soysal bilimler enstitüsü, 2015. – 174 s.